

SALJUQIYLAR DAVRIDA QO'SHIN VA UNING BOSHQARUVI

Baybajanova Dildora

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10782532>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta asrlarda Xuroson hududida vujudga kelgan hamda butun O'rta Sharqqa o'z ta'sirini o'tkaza olgan turkiy saltanat – Saljuqiylar imperiyasining qurolli kuchlari hamda uning boshqaruvi tahlil qilingan. Qo'shinning Saljuqiylar davlatidagi siyosiy va harbiy roli ham qisman yoritilgan.

Kalit so'zlar: saljuqiylar, turkmanlar, otliq va piyoda qo'shin, muntazam armiya, Nizomulmulk.

THE ARMY AND ITS MANAGEMENT DURING THE SELJUK PERIOD

Abstract. This article analyzes the armed forces of the Seljuk Empire, the Turkish kingdom that emerged in the Middle Ages in Khorasan and was able to influence the entire Middle East, as well as its administration. The political and military role of the army in the Seljuk state is also partially covered.

Key words: Seljuks, Turkmens, cavalry and infantry, regular army, Nizamulmulk.

АРМИЯ И ЕЕ УПРАВЛЕНИЕ В ПЕРИОД СЕЛЬДЖУКОВ

Аннотация. В данной статье анализируются вооруженные силы Империи Сельджуков – турецкого королевства, возникшего в средние века в Хорасане и способного влиять на весь Ближний Восток, а также его администрацию. Частично освещена также политическая и военная роль армии в государстве Сельджуков.

Ключевые слова: сельджуки, туркмены, конница и пехота, регулярная армия, Низамулмульк.

IX asrning boshlaridan Arab xalifaligi markazi bo'lgan Bag'dod siyosiy kurashlar va o'zaro qarama-qarshi kuchlarning ziddiyatlari orasida qoldi. Bu kurashlarda kimning qo'lida harbiy qudrat bo'lsa, o'sha tomonning qo'li baland kelardi. Xususan, 809-813-yillarda xalifa Horun ar-Rashidning ikki o'g'li – Amin va Ma'munlar o'rtasida fuqarolar urushi taqdirini hirotlik turk zodagoni Tohir ibn Husaynning Ma'munga ko'rsatgan harbiy yordami hal etgan. Turk qo'shinlari endilikda xalifalik markazida real hokimiyatni qo'lga kiritib, xalifa va vazirlarni almashtirish darajasiga borib yetgan.

XI asrdan e'tiboran Arab xalifaligidan ajralib chiqqan sharqiy hududlarda saljuqiy turklarning nufuzi orta boshladi. Saljuqiylar o'g'uz qabilasining katta bir urug'i bo'lib, X-XI asr boshlarida somoniylar va g'aznaviylar qo'shini tarkibida muhim o'rin tutgan. Saljuqiylarning harbiy nufuzi yanada ortishiga asosiy sabab 1040-yili sodir bo'lgan Marv yaqinidagi Dandanakon jangida qoraxoniylar va g'aznaviylarning birlashgan qo'shini ustidan g'alaba qozonishi edi.¹ Bu jang natijasida Xurosonda yangi davlat – Saljuqiylar davlati tashkil topa boshladi, G'aznaviylar davlati esa siyosiy tushkunlik bosqichiga kirdi, buning oqibatida saljuqiylar bilan siyosiy jihatdan

¹ аль-Истахри. Книга путей и стран // Хрестоматия по истории Халифата. — М.: МГУ, 1968.

yetarlicha raqobat qila olmadi. Qoraxoniylar esa Movarounnahr bilan cheklanishga hamda Xurosonga bo'lgan da'volaridan voz kechishga majbur bo'ldi.

Saljuqiylarning qo'shin tuzilishi Abbosiylar davrida xalifalik mudofaasi uchun yollangan turk g'ulomlaridan iborat muntazam armiyadan keskin farq qilgan. Saljuqiylarning dastlabki qo'shin birliklari muntazam bo'lmay, oilasi va chorva mollari bilan ko'chib yuruvchi aholidan tuzilgan edi. Ular yangi hudud va yaylovlarni o'zlashtirish hamda u yerlarda muqim o'rnatish uchun kerakli vaziyatda birlashib harakat qila olgan. Shuning uchun garchi muntazam armiyaga birlashmagan bo'lsa-da, urushga tayyorlik qabilaning doimiy mashg'ulotiga aylangan edi.²

Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulkning yozishicha, sulton Malikshoh hukmronligi davrida (1072-1092) podshoh ixtiyorida juda katta muntazam qo'shin bo'lgan.

Qo'shin turkman qabilalari va mamluklardan tuzilgan bo'lib, piyodalar, otliqlar va sultonning shaxsiy qo'riqchilari kabi tarkibiy qismlarga ajratilgan. Nizomulmulk saljuqiylarning umumiy qo'shinlari sonini 400 ming deb xabar bergan. U sulton Malikshohning qo'shinlar sonini 70 ming kishiga tushirish haqidagi takliflariga doimo qarshilik bildirgan va mamlakat qaltis siyosiy vaziyatda turganda qo'shinlar zarurligini ro'kach qilgan.³

Saljuqiylar imperiyasining madaniy markazlari Eron shaharlari edi. Vazir Nizomulmulk qo'shinni mustahkamlash bilan birga madaniyat va ilm-fan rivojiga ham homiylik qilgan.

Jumladan, astronom va matematik olim Umar Xayyomning 1079-yili Nishopurda rasadxona qurishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Saljuqiylar davlati tashkil topgandan keyin turkmanlar Anadoludagi saljuqiylar ekspansiyasining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qoldi.

Malikshoh hukmronligidan keyin turkmanlarning harbiy nufuzi pasayib ketgan.⁴

Turkmanlarni siyosiy jihatdan boshqarish qiyin edi, ular talon-taroj qilishga moyil edilar.

Biroq eng katta muammo ularning chorva uchun yaylovlarga bog'liqligi edi. Saljuqiylar davlatini tashkil etgan ko'plab viloyatlar ko'chmanchi armiyani ta'minlash uchun tabiiy jihatdan noqulay edi. Turkmanlarning cheklanishini arab olimi Sibti ibn al-Javziy juda yaxshi ta'riflagan:⁵

“Sulton To'g'ri askarlariga o'zlarini tayyorlab, chodirlari, bolalari va oilalarini Iroqqa olib kelish va u bilan birga Suriyaga jo'nashni buyurdi. Ular: “Bu yer vayron bo'ldi, bu yerda na oziq-ovqat, na yem-xashak, na mablag' bor. Biz otlarning orqasida butun ume tura olmaymiz (ya'ni faqat otliq jangchi sifatida hayot kechira olmaymiz). Agar oilamiz, otlarimiz va hayvonlarimiz bu yerlarga kelsa, ularning yashashi uchun kerakli sharoit qilib bo'lmaydi”. Turkmanlarning vatanga qaytish talabi tufayli uzoq yurishlarni to'xtatishga, turkmanlarning talablarini qondirish uchun istilolar rejalashtirishga to'g'ri keldi. Turkmanlarning qisqa muddatli ehtiyojlari uzoq muddatli harbiy rejalarni amalga oshirib bo'lmaydigan qilib qo'ydi.

Turkmanlar qo'shini o'rnini bosishga muqobil variant mamluk jangchilari edi. Mamluklar turkmanlardan farqli o'laroq ko'chmanchi emas, ularga keng yaylovlarning keragi yo'q edi. Saljuqiylardan avval ham mamluk jangchilaridan Abbosiylar va Somoniylar sulolalari foydalangan edi. G'aznaviylarning o'zi esa ana shu mamlulardan kelib chiqqan edi. Mamluk

² Peacock, Andrew C. S. (2010). *Early Seljūq History: A New Interpretation*. pp. 83–84.

³ Peacock, Andrew (2015). *The Great Seljuk Empire*. Edinburgh University Press Ltd, p 218.

⁴ Durand-Guedy, David (2015). “Goodbye to the Turkmen? The Military Role of Nomads in Iran after the Saljuq Conquest”.

⁵ al-Jawzi, Sibti (1968). *Sevim, Ali (ed.). Mir'at al-Zaman fi Ta'rikh al-A'yan: al-Oawadith al-kha'a bi-ta'rikh al-Salajiqqa bayna al-sanawat 1056–1086*. Ankara. p. 5.

jangchilari sulton Sanjar davrida qo‘shinlarning asosiy qismini tashkil etgan va saljuqiylarning Xorazmdagi harbiy yurishlarida qatnashgan. Biroq 1141-yilgi Qatvon jangida saljuqiylarning qaqshatqich mag‘lubiyatga uchrashi sultonning mamluk jangchilari ustidan nazoratining susayishiga sabab bo‘ldi. Bu ziddiyatlar natijasida XII asrning 50-yillari oxiriga kelib Marv (Xuroson markazi) dagi saljuqiylar hukmronligiga chek qo‘yiladi. Saljuqiylar faqat Iroq, Shom va Ko‘niyadagina hukmronlikni saqlab qoldilar. Iroq shimoli va Suriyadagi saljuqiylarni zangiylar sulolasi surib chiqardi. 1194-yilda Xorazmshohlar sultoni Takash Iroqdagi saljuqiylarga zarba berdi va Erondagi nazorat to‘liq Xorazmshohlar saltanatiga o‘tdi. Saljuqiylar Kichik Osiyo janubidagi Ko‘niya shahridan turib Rum sultonligini 1308-yilgacha idora etdilar.

REFERENCES

1. аль-Истахри. Книга путей и стран // Хрестоматия по истории Халифата. -М.:МГУ, 1968.
2. Peacock, Andrew C. S. (2010). Early Seljūq History: A New Interpretation. pp. 83–84.
3. Peacock, Andrew (2015). The Great Seljuk Empire. Edinburgh University Press Ltd, p 218.
4. Durand-Guedy, David (2015). “Goodbye to the Turkmen? The Military Role of Nomads in Iran after the Saljuq Conquest”.